

**BADIIY ADABIYOTDA GENDER MUNOSABATLARI MUAMMOSI**

**Shabbazova Nodira Xamzayevna**

Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi  
magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender atamasining kirib kelishi, badiiy adabiyotda gender munosabatlari muammosi va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, ikki xil jins vakillarining vazifalari, genderning adabiyotdagi o'rni haqida baxs boradi. Shuningdek, davlatimizda gender bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender atamasi, gender muammosi, badiiy adabiyot va gender, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi" Qonuni, ayol va erkak vazifalari, gender tengligi

**ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ  
ЛИТЕРАТУРЕ**

**Шаббазова Ноди́ра Хамзаевна**

Магистрант Термезского государственного университета по специальности  
«Литературоведение: узбекская литература»

**Аннотация.** В данной статье говорится о введение термина гендер, проблеме гендерных отношений в художественной литературе и ее связи с социальной средой, роли представителей двух разных полов, роли гендера в литературе. Также они рассказали о работе, проводимой в сфере гендера в нашей стране.

**Ключевые слова:** Гендерный термин, гендерная проблема, художественная литература и гендер, Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», женские и мужские задачи, гендерное равенство.

**THE PROBLEM OF GENDER RELATIONS IN FICTION**

**Shabbazova Nodira Khamzayevna**

Termiz State University Master's student of Literary studies: Uzbek literature

**Abstract.** This article discusses the introduction of the term gender, the problem of gender relations in fiction and its connection with the social environment,

the roles of representatives of two different sexes, the role of gender in literature. It was also mentioned about the work being done on gender in our country.

**Key words:** Gender term, gender problem, fiction and gender, Law of the Republic of Uzbekistan "On guarantees of equal rights and opportunities for women and men", female and male tasks, gender equality.

### KIRISH

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida badiiy adabiyotning o'rnini, undagi muammo va yechimlar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hozirgi dolzarb muammolardan biri esa, jahonda keng yoyilgan gender atamasining yurtimizga kirib kelishi, ayollar va erkaklarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi tengligini ta'minlash asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu terminning kirib kelgunigacha musulmon olamida ayollar va erkaklarning teng huquqligi qanday edi? degan savol tug'iladi. Bashariyat tarixiga nazar solsak, VII asrda Islom dinining kirib kelishi bilan ayollarning kamsitilishiga-jaholat davriga chek qo'yilganligini ko'ramiz. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning Niso surasida erkak va ayollarning vazifalari ko'rsatilib, ayollarga hurmatda bo'lishga chaqirilgan. Dinimizda erkak va ayolning o'ziga xos vazifalari, mushtarak huquqlari bor. Erkakmi, ayolmi yaxshi amallar qilsa savob. Payg'ambarimiz hadislarida: "Alloh bandaga bir qiz bersa, uni kamsitmay, e'zozlasa-jannatidir" deganlar. Zero, Payg'ambarimizning hayoti davomida ayollarga bo'lgan ehtiromlari, xurmatlari tahsinga sazovor bo'lib, o'rnak olsa arziydi. Imkoniyat jamiyatda tutgan o'rnini bilan ayol va erkakka vazifa berilgan. Masalan, ayol Ona, uning Onalik huquqi ustun turadi, shuning uchun ayolning o'ziga xos huquqi, shuningdek, burchlari bor, lekin ayollar erkaklar bilan vazifalari jihatidan farqlanadi. Ayollar erkaklar bilan huquqiy jihatdan tengdirlar, oiladagi vazifalari jihatidan farq qiladi. Gender tengligining asosiy maqsadi esa, ayollarning huquqini himoya qilishdan iborat. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizda ko'p islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ayollar erkaklar bilan teng huquqliligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan bo'lib, uning 58-moddasida qayd qilinganidek, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi." Ayollar va erkaklar ta'lim olishda, moliyaviy, huquqiy jihatdan tengligi qonunda belgilangan. Shunday ekan, gender atamasining kirib kelishidan oldin ham, yurtimizda ayollar va erkaklar teng huquqliligi kafolatlangan bo'lib, qilinayotgan ishlar tahsinga sazovor.

“Gender ( ing. gender < lot. genus- jins) Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati.” Eng nufuzli ingliz sotsiologlaridan biri Entoni Giddens “Sotsiologiya” kitobining 6-bo‘limini genderga bag‘ishlagan. Uning o‘ylashicha, jinsni o‘rganish, odatda, sotsiologiyaning ayricha xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Gender muammolari sotsiologik tahlil uchun ahamiyatli, ularni bitta soha bilangina emas, balki boshqa sohalar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Gender farqlar sinf tizimlariga qaraganda chuqurroq tarixiy ildizlarga ega; qadimgi ovchilar davrida, ya’ni sinfsiz qadimgi jamoalarda ham erkaklar imtiyozli obro‘ga ega edilar. Biroq zamonaviy jamiyatda jinslar orasidagi farqlar shunchalik o‘rinli, hech shubhasiz, gender farqlarni “yopib” qo‘ygan. Aksariyat, ayollarning moddiy ahvoli, qoida tariqasida, ularning otalari va erlarining holatini aks ettiradi va bu bugungi kunda jinslar farqini sinflar tushunchalari orqali tushuntirishimiz kerak, degan fikrni keltirib chiqaradi, - deydi buyuk sotsiolog E.Giddens.

Genderologiya – biologik jinslarni ijtimoiy muhitda o‘rganuvchi eng yosh fan. “Gender” atamasi ko‘p ma’noli bo‘lib, fanga 1955-yilda buyuk seksolog Jon Mani tomonidan kiritilgan. Ko‘rinadiki, dastlab bu atama tibbiy ma’noga ega bo‘lgan. Hozirgi kunda esa genderologiya yo‘nalishi ijtimoiy fan sifatida bo‘y ko‘rsatmoqda. Jon Mani “genderli rol” (“gender role”) tushunchasini ishlatgan. Olim nafaqat yangi atama yaratdi, balki uni oddiy taqqoslash doirasidan chiqarib yubordi. Uning izohlashicha, “gender” tushunchasi ko‘pgina belgilarni aniqlab beradi, jumladan, jismoniy xususiyatdan to ijtimoiy rolgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Manining g‘oyasi mohiyatini o‘tgan asrning 50-yillari oxirida Los-Anjelesning Kaliforniya universitetida faoliyat yuritgan psixoanalitik Robert Stoller ochib berdi. U 1963-yilda Stokgolmda bo‘lib o‘tgan ilmiy kongressda gender mohiyatini tushuntiruvchi ma’ruzasi bilan qatnashdi. Uning fikricha, genderni o‘rganishni tabiiy fanlardan ajratib olib, psixolog va sotsiolog ixtiyoriga topshirish kerak. O‘sha davrda bu g‘oya yaxshi qabul qilinmadi, lekin 1970-yillarda ayollar huquqi uchun kurashuvchilarga bu qo‘l keldi.

Sotsiolog, professor Ye.Zdravomislova “gender” atamasini 1968-yilda amerikalik psixolog va psixoanalitik olim Stoller “Gender and sex” kitobida ilmiy muomalaga kiritganini aytib o‘tgan. Bu so‘z etimologiyasi lotin tiliga borib taqaladi. Rus tiliga esa ingliz tili orqali kirib kelgan. “Gender” termini bundan oldin ham feminist tadqiqotchilar tomonidan ishlatilgan, ammo Stoller bu atamani ilmiy asoslab qo‘llagan. Eng obro‘li ingliz sotsiologlaridan biri Entoni Giddens jinsga shunday ta’rif beradi: jins – bu “erkak va ayollar o‘rtasidagi jismoniy farq emas,



erkaklik shaxsiyatining ijtimoiy shakllangan xususiyatlari”. Gender, uning so‘zlari bilan aytganda, birinchi navbatda “xulq-atvorga tegishli ijtimoiy munosabatlarni” anglatadi. Gender – ijtimoiy psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Genderning ijtimoiy psixologiyasi esa uning bir qismi. U ijtimoiy me‘yorlar tadqiqoti bilan shug‘ullanadi. Genderning ijtimoiy psixologiyasi – belgilangan diniy bid’atlar, qonun-qoidalar, ijtimoiy idrok, o‘z-o‘zini hurmat qilish, ijtimoiy rol va me‘yorlarning paydo bo‘lishini o‘rganish maydonchasi.

Adabiyot madaniyatning ajralmas bir qismi sifatida, gender atamasini amalda yoyilishida muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotda gender munosabatlar muammosi so‘nggi yillarda yozuvchilar, tanqidchilar, adabiyotshunoslar va tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu yuzasidan dunyo miqyosida ko‘plab ishlar olib borilgan bo‘lsada, o‘zbek adabiyotida izlanishlar yetarli emas. O‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlarda gender muammosi haqida to‘xtalsak, avvalo, Cho‘lponning asarlari yorqin ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotining eng yorqin namoyondalaridan biri Cho‘lpon qalamiga mansub “Kecha va kunduz” asari qahramonlaridan biri Razzoq So‘fi rafiqasi Qurvonbibini “fitna” deb atab, uning rafiqasini kamsitishi namoyon bo‘ladi.

“O‘zbekda, axir, har bir erkak o‘z xotinini – o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotinining ismini aytib chaqirishi yaramaydi. Xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmon: - sharmu hayo yuzasidan bo‘lsamikan? – xotinini “Xadicha” deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar “labbay” deydi, shunday-da, oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota: “Kattangni aytaman, kattangni!” deydi. Hatto shunda ham “Maryamni” demaydi... Bizning so‘fi mo‘min - musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt “Fitna” deb chaqiradi: “Fitna, qiz o‘lguring qani?”, “Fitna puldan uzat!”. Shuningdek asar bosh qahramoni Zebining ayanchli taqdiri, otasi qatori Akbarali mingboshiga, undan ko‘ngli so‘ralmasdan turmushga berilishini qanday izohlash mumkin? Zebi sho‘x shodon, xushchaqchaq, xush ovoqli qiz edi. Uning shunchalar shirali mayin ovozi bor edi. Orzularga to‘la qiz edi, lekin orzulari armonga aylandi. Turmush o‘rtog‘iga o‘zi bilmasdan zahar solingan choynakni suvidan berib, uni o‘limida ayblanib, 7 yilga Sibirga surgun qilinadi. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” asarida ham hali bolaligi bilan xo‘shlashib ulgurmagan go‘zal Sharofatxon, piriga yaxshi ko‘rinishdan boshqa narsani o‘ylamagan otasining xudbinligi tufayli, qo‘sh xotinli qari eshonga uchinchi xotin qilib beradi. Eshondan sovchi kelganda xotini Qumribush “qizimiz hali yosh, endi 17 ga chiqdi, dedim. Shunday deb javob bera qolaymi? deb turmush o‘rtog‘idan so‘raganida: Samandarboy bir yosh qizini, bir eshonni, boyagi nazr-niyoz masalasini, eng so‘ng

kimsan hazrat eshonning kuyovliklarini o‘ylab turdi-da: «Bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!» degil!— dedi. Qumribush kutilmagan bu gapdan oqardi, ko‘kardi, suvratdek qotib devorga suyalib qoldi... Mahalla-ko‘y qizning taqdiriga dildan achinib qolaveradi. Cho‘lpon Sharofatxon haqida: “Bu qiz shu tegranning ko‘rklilikda, chevarlikda, sho‘xlik va o‘ynoqlikda bittayu bittasi edi” deb tasvirlaydi. Tasvirning aniq va tiniqligi, ayol dard va hasratlari aks ettirilganligi yozuvchining o‘sha davrda bo‘lib o‘tgan voqeani bayon qilganligida namoyon bo‘ladi. Ayollarning huquqi poymol qilinishi o‘sha davrning illatlari ekanligi Cho‘lponning e‘tiboridan chetda qolmagan. Asarlari orqali Cho‘lpon o‘sha davrda Zebi, Sharofatxon kabi ko‘plab xotin-qizlarimiz majburlab, turmushga berilganligini ochib bergan. Shuningdek, yana yozuvchining “Novvoy qiz” asari mavzu jihatdan “Qor qo‘ynidagi lola” asariga yaqin bo‘lishi bilan birga, kompozitsion xususiyatlari bilan jiddiy farqlanadi. Hikoyada bir novvoy qizning nomusi bir imonsiz yigit tomonidan toptalganligi, ayanchli taqdiri aks ettirilgan. Men novvoy qiz edim... Besh yildan beri non yopib, o‘zim sotib qari onamni boqar edim... Bir kun... Bir kun...

U yog‘ini ayta olmadi. Nafasi og‘ziga tiqildi, bo‘g‘ildi, badtar qaltiradi. So‘ngra birdan yovvoyi bir «dod» chiqarib yiqildi. Ko‘rinadiki, bir qiz taqdiri orqali, yozuvchi yana o‘z davridagi ulkan muammolarni o‘rtaga tashlaydi. Asarlaridagi ayanchi ayollarning taqdirida jamiyatni, xalqni, millatni ayblaydi. Cho‘lponning hikoyalarda ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolardan biri xotin-qizlar taqdiri qalamga olingan bo‘lib, inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarga to‘la muammolar o‘zining badiiy talqinini topgan. Nosir “Qor qo‘ynida lola”, “Nonushta”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” hikoyalari orqali o‘zbek ayolining sabr-matonati, samimiyligi-yu soddaligini ochib bergan. Bu asarlar orqali Cho‘lpon xotin-qizlarga munosabat yaxshi bo‘lmagani, ularning haq-huquqi kamsitilgani uchun jamiyat e‘tiborini ayollar taqdiriga qaratmoqchi bo‘lgan. Bugun tahlilga tortayotgan “Novvoy qiz” hikoyasidagi hissiy kechinmalar yurak-yuragingizning ich-ichiga o‘rnashadi. Asar yozilganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa-da, haligacha o‘z ta‘sirini yo‘qotmagan. Yosh va yangiday. Hikoyaning mavzusidayoq muammoli harakter, uqdirish ma‘nosi bor. Nima uchun sarlavha “Novvoy qiz” deb nomlandi? Qahramon boshqa kasb egasi ham bo‘lishi mumkin edi-ku. Bilamizki, bizda non muqaddas. Uning har mag‘zi, har bo‘lagida mehnatkash xalqning mashaqqati, hayot mazmuni yotadi. Non bilan oshno bo‘lgan kishidan esa yomonlik chiqmaydi, nomussizlik qilmaydi. Razillik qurboniga aylangan qahramon qizning aybsizligi, samimiyligini isbotlash uchun ham Cho‘lpon uni “Novvoy qiz” deb atagan, manimcha. Asar g‘oyasida esa xotin-qizlar huquqlari, ularning muqaddas ekanligini

ta'kidlash bilan birga zamonadagi moddiy qiyinchiliklar, mustamlakachilikka qarshi kurashishni ilgari surilgan. Hikoya markazida Novvoy qizning taqdiri turadi. Asarning syujet chizig'i ham boshqacha: "Qilg'ilik qilinib, bechora qizning qizligi olinib, bo'lar ish bo'lib bitgandan keyin, ikkalasi jimjit bo'lib ikki tomonga cho'zilishdilar" Boshlanishidayoq fojeali tugun. Kitobxon endi nomusi toptalgan qizning taqdiriga ham achinadi, ham nima bo'lishiga qiziqadi. "...Uyning ichi, tashqi hovli, ko'cha-ko'y xuddi tong otishidan sal burung'i vaqtlarday chuqur, vazmin va tinch". Mana shu tasvir orqali qizning ruhiyatidagi tushkunlik tashqi detallarga ko'chirilgan. Bu esa asarning badiiyligini to'laqonli oshirgan. Yana bir e'tiborli jihat "so'fining shomga aytgan azoni". Buning ham ramziy ma'nosi bor. Shom - qorong'ulik bostirib kelishidan bir darak. Novvoy qizning qorong'i kunlari, zulmatda qolgan taqdiriga bir hayqiriqdek, go'yo.

Atoqli adib Murod Muhammad Do'stning "Dashtu dalalarda" hikoyasida bosh qahramon Polvonning xotini uydan ketib qolishi va uning shundan keyin yolg'iz yashab qiyinchiliklarni boshidan kechirishi tasvirlangan. Polvonning xotini Xadicha oddiy qishloq ayoli turmush o'rtog'ining bir aroqxo'r odamning gapiga ishonib qilgan tuhmatiga, oilani muqaddas bilgani uchun uyidan ketmaydi. Turmush o'rtog'i "ket, yo'qol, qizingni ham olib ket" deganidan keyingina uyidan chiqib ketadi.

- Xadicha bir sidra kiyimini tugun qilib, poygakda qotib turdi, bechora biror sado chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo'lib bir narsa demadi. Xadicha dahlizga chiqib yana birpas turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olar-ku, dedi, ammo Polvon teskari-to'ng bo'lib yotaverdi, so'ng, Xadicha darvozaga yetganda chidab turolmadi, qizchasi Chamanni qo'ldan sudrab chiqdi: «Ma, muniyam obket, pishirib yeysanmi, isqotingga qo'yasanmi!...» Musht yeganda yig'lamagan ayol, buni eshitib yomon bo'shshdi, ko'ziga yosh oldi: «Hah, falak!— dedi. — Mayli, ketsam ketayin, beqadr bo'ldim, mayli, Xudodan toping». Shu gapni aytdiyu qizini yetakladi-ketdi.

Behora ayol turmush o'rtog'i- Polvon bilan yashab, ro'shnolik ko'rmaydi. Turmush o'rtog'i uni urib, so'kib doimo kamsitadi. Oilani muqaddas bilgan, ojiza ayol hikoya yakunida turmush o'rtog'ini kechiradi.

Ayollarning ojizaligi, ularni asrab-avaylash haqida ko'p gapiriladi. Amalda esa doim ham mazkur fikrlar o'z tasdig'ini topavermaydi. Istiqloq davrining ko'zga ko'ringan yozuvchilaridan biri Alisher Ibodinovning "Bir tomchi yosh" hikoyasida kitob o'qishga havasmand, shoira bo'lish orzulari armonga aylangan, 18 yoshida turmushga chiqqan, Ma'suma ismli ayol taqdiri, uning nozik his tuyg'ulari aks ettirilgan. Ma'sumaning qaynonasi Qurbon kampir kelinini o'qishiga qarshilik



qiladi. Alloma Abdulhamid ibn Bodis “Agar o‘g‘il bolaga ta‘lim bersang, bir shaxsga ta‘lim bergan bo‘lasan. Agar qiz bolaga ta‘lim bersang, butun ummatga ta‘lim bergan bo‘lasan” degan edi. Darhaqiqat, qizlar ummat tarbiyachisi hisoblanadi. Afsuski, aksariyat oilalarda ayolga faqat uy bekasi sifatida qaraladi. Ayolning ovqatni shirin pishirishi, uylarni ozoda saqlashi uning ilm olishidan ko‘ra muhimroq hisoblanadi.

— Hammaning kelini abitta o‘tiri-ib kashta tiksa, meniki kitobga termiladi! «Olima-da!». Qaynonasi kelinini o‘qimishli bo‘lib, kitob o‘qishini xohlamaydi. Ma’suma esa bo‘sh qoldi deguncha kitob o‘qishga juda qiziqadi. Boshida Turmush o‘rtog‘i kitob o‘qishiga qarshilik qilmaydi, lekin onasining gaplaridan ayolini o‘qishini xohlamaydi.

—Ma’sumaxon yaxshi, mehnatkash, qobil juvon. Kelinim bor, desa arzigulik. Odobi ham joyida. Ammo... shu bo‘sh qoldimi, o‘quvradi-o‘quvradi... Yuraklarim siqilib ketadi, unga qarab! Hoy, deyman, kelin, siz o‘zingiz bir kolxozchi bo‘lsangiz, o‘qib, nima, shahar olib berarmidingiz eringizga! Undan ko‘ra kashta tiking, ko‘rpayostiq qopleng. Bekordan xudo bezor, deb mundoq nasihat qilsam, bezrayib turaveradi. Miq etmay uyiga kirib yana kitobga termiladi. Ana, innakeyin menikiyam alanga oladi-da, quda!

Ayol ona, ayol kelin, ayol rafiqqa bo‘lishi bilan birga, unda ham ko‘ngil bor. U ham o‘zini sevib, yaxshi yashashga haqli. Ma’suma orzu-havaslariga to‘la, yoshligida shoira bo‘lishga havasmand qiz edi. Otasi Ma’sumani kitob o‘qishiga xayrihoh bo‘lib, yoshligida kitobga qiziqtiradi. O‘qimishli bo‘lishini xohlab kitoblar olib kelib beradi.

Bolaligida, uylarida, odatda, sho‘rvani alohida, har kimning o‘z kosasiga suzishgach, kartoshkasi bilan go’shtini laganga solib, yo‘l-yo‘l chit dasturxonga qo‘yardilar. Ular obdan qaynab yetilgan sho‘rva suvini terlab ichishar, o‘rtadagi kartoshka va go’sht uyumi dimoqni qitiqlovchi hid taratib, ko‘zlarini o‘ynatardi. Ovqatdan so‘ng otasi seryung oyoqlarini cho‘zib, ko‘rpaga yonboshlar, agar kayfi xush bo‘lsa: O‘qi, qizim! — derdi Ma’sumaga. Ma’suma «Kuntug‘mish», «Shirin bilan Shakar», «Malika ayyor»larni sharillatib o‘qib berardi. Ayvon ro‘parasidagi ishkonda yirik-yirik uzum boshlari chiroq nurida marjon tizimlariday osilib yotardi. Ba‘zan dostonning eng qiziq joylari kelib, atrofdagilar «oh-voh» ko‘tarishganda, uzum boshlari ham ohista qimirlab ketardi... Oh, qanday baxtli damlar ekan o‘sha oqshomlar!... Keyin otasi vafot etdi. Oilada kattasi Ma’suma edi. Onasiga ergashib dalaga chiqdi. Onasi ham indamadi. Bir jo‘yak g‘o‘za chopiq qilsa, bir bog‘ o‘t yulsa ham harna, dedi. O‘shanda Ma’suma o‘n ikkiga to‘lgan edi. Shundayicha mana yigirma birga

kiribdi, paxtazorning qo‘ynida! O‘qish ham qolib ketdi! Sakkizinchi sinfni zo‘rg‘a bitirdi-yu, u yog‘iga sabri chidamadi. O‘n sakkizida uni Rajabboyga berishdi. Rajabboy qo‘shni mahalladan, Ma’suma dirkillab, to‘lishib kelayotgan mahalda u o‘ninchini bitirgan, shaharga o‘qishga borib kirolmay qaytgan paytlar edi. Uzzukun mototsiklni «pat-patlatib» izg‘ib yurardi. Ko‘plar qatori Ma’sumaning ham ko‘zi tushgandi unga. Keyin armiyaga ketibdi, deb eshitdi. Ko‘p o‘tmay Ma’sumalarning eshigini ham gapdon, sermulozamat, chaqqon kampirlar - sovchilar cherta boshlashdi. Ma’suma kuyov tanlamadi. Bir vaqtlar qalbining tubida tug‘ilgan jingalak soch, kelishgan ziyoli yigit — Ma’suma bilan bog‘larda qo‘l ushlab sayr etishi kerak bo‘lgan yigit qalbining o‘sha yerida o‘lib, dafn etilgan edi. Ma’suma 18-yoshida ota-onasining qistovi bilan turmushga chiqadi. Orzulari armonga aylanadi. Qizlarni o‘qitish shart. Ular shaxs sifatida shakllanganidan keyingina turmushga berish kerak. Chunki turmush qurdi degani hayoti yaxshi bo‘lishiga kafolat emas, ertaga nima bo‘lishini hech kim bilmaydi. Hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonganimizda ham, oila qurayotgan qiz mustaqil va shakllangan shaxs bo‘lishiga e’tibor qilish kerak.

Xulosa qilib ta’kidlaymanki, ayol kishi ishni ham, oilani ham muvofiqlashtirib olib bora oladi, deb o‘ylayman. Hatto kun bo‘yi ishlasa ham. Albatta, ishlovchi ayollarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Tarixdagi buyuk ayollar ham, bugungi kundagi faol, katta-katta kasbiy yutuqlarga erishgan ayollar ham, avvalo, ona, ular farzand tarbiyalashgan. Hatto, farzandlari bilan xorijda ham o‘qib kelishyapti. Texnologiyalar rivojlanib, ovqat pishirish, kir yuvish kabilar ko‘p vaqt oladigan yumush bo‘lmay qoldi. Hozir har kimga asosiysi muloqot, ko‘ngildan gaplashadigan yaqin odam kerak bo‘lib qoldi. Oilada er uchun shunday odam ayol bo‘lishi kerak. Buning uchun ayol albatta o‘qigan bo‘lishi kerak, albatta fahm-farosatli, ilmiy yoki qo‘lida hunari bor bo‘lishi, ya’ni o‘zini mustaqil shaxs sifatida taqdim eta oladigan bo‘lishi kerak. Ajralishlar soni ortyapti, deymiz. Lekin shunda ham qizlarimizga bilim bermayapmiz, ularga kasb o‘rgatmayapmiz. Ayollarimizni har qanday hayotiy vaziyatlarga tayyorlab borishimiz kerak, chunki aksar hollarda ajralishlarda farzand onasi bilan qoladi. Shunday ekan, ayolning bilimsiz bo‘lishga, hunarsiz bo‘lishga haqqi yo‘q. Bu – sog‘lom, bilimli avlodni tarbiyalash masalasida ayolning ijtimoiy hayotdagi o‘rni beqiyos.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Abdulaziz Mansur tarjimasi “Qur’oni Karim”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrir, T: 30.04.2023.
3. N.Mahmudov tahriri ostida” Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”, T: Sahnof, 2020.



**VOLUME-2, ISSUE-5**

4. Гидденс Е. Социология. Едиториал УРСС, 1999.-С. 15.
5. Гидденс Е. Гендер и стратификация// [http:// society.polbu.ru](http://society.polbu.ru).
6. [http:// elar.urfu.ru](http://elar.urfu.ru).
7. Берн Ш. Гендерная психология: законы мужского и женского поведения. СПб.:Прайм-Еврознакб 2008-318с.

